

**O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashi  
Yoshlar birlashmasining 2020 yilda amalga oshirilgan ishlari to'g'risida  
ma'lumot**

“O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Navoiy viloyat Kengashining 2020 yil yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi” ishlab chiqildi va tasdiqlandi.



Yoshlar bilan uchrashuvni tashkil etish jadvali ishlab chiqildi va tasdiqlangan jadval asosida joriy yilning 25 fevral kuni viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasining faollar zalida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi tashkil etildi. Unda Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari hamda korxona va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan yosh xodimlar ishtirok etdi. Ular o'zlarini qiziqtirgan savollariga Birlashma raisi N. Tog'ayeva, rais o'rinnbosari Sh. Xalilov va birlashmaning bo'lim mudirlari tomonidan atroflicha javob olishdi. Ishtirokchilarning barchasiga badiiy kitoblar va kasaba uyushmalariga a'zolik afzalliklari to'g'risidagi buklet va tarqatma materiallar berildi. Tadbir yakunida sport, ta'lim va fan yo'nalişlarida qator yutuqlarni qo'lga kiritgan yoshlarga kasaba uyushmalarining estalik sovg'alari va tashakkurnomalari topshirildi.

Joriy yilning 26 iyun kuni viloyatdagi korxona, tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar ishtirokida Zoom ilovasi orqali “Rahbar va yoshlar” onlayn uchrashuvi o'tkazildi.

Dasturga asosan joriy yilning o'tgan davr mobaynida viloyatdagi korxona va tashkilotlarning yosh xodimlarilari hamda oliy ta'lim muassassasi talabalari o'rtasida ochiq muloqotlar o'tkazildi. Ushbu ochiq muloqotlarda 7 mingdan ortiq yoshlar ishtirok etishdi. Tarmoq kasaba uyushmalari kengashlarining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchilari tomonidan muntazam ravishda ochiq muloqotlar o'tkazilinib borildi.



Viloyatdagi 1 361 ta korxona, tashkilot va muassasalarda o'tkazilagan "Ma'naviyat soatlari"da 10 ming nafardan ortiq ishchi xodimlar, shundan 4 ming nafar yoshlarning ishtiroki ta'milandi. Ma'naviyat soatlariga deputatlar, ma'naviyat markazlarining tuman va shahar bo'limlari mutaxassislari jalb etildi.

Viloyatning korxona, tashkilot va muassasalarida "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan uchrashuvlar va seminarlar o'tkazildi. Seminarlar va uchrashuvlarda ishtirokchilarga tarqatma materiallar taqdim etilib, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi. Xususan, "Ishonch", "Do'stlik bayrog'i", "Qiziltepa tongi", "Karmana ovozi" kabi gazetalarda chop etildi.

Joriy yilning yanvar oyidan bugungi kuniga qadar "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilib borilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun mohiyati va kasaba uyushmalari faoliyatining konstitutsiyaviy kafolatlarini yoshlarga yetkazish, kasaba uyushma faollari safini yoshlari bilan to'ldirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – munosib mehnatning huquqiy kafolati" shiori ostida targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining huquqiy kafolati" mavzusida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini targ'ib etish bo'yicha viloyatda o'tkaziladigan madaniy, ma'rifiy oyligida ham kasaba uyushmalari a'zolari va xodimlarining faol ishtiroki ta'minlandi. Viloyatdagi yirik korxona, tashkilotlar hamda muassasalarda mazkur bayram munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining huquqiy kafolati" mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi. Shuningdek, "Konstitutsiya – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va buniyodkorlik ishlarining muhim poydevori" shiori ostida kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan 100 nafardan ortiq ishchi-xodimlarning sayohatlari uyushtirildi.

Katirchi tuman sport bulimi hamda XTB bilan hamkorlikda bayram munosabati bilan tumandagi ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh xotin-qizlar o'rtasida sportning valeybol, shaxmat va shashka turlari bo'yicha sport musoboqlari tashkil qilindi. Ushbu musoboqada ishtirok etib g'olib bo'lgan sportchi xotin-qizlar tuman kengashining maxsus diplom va sovg'alarini bilan taqdirlandilar. Shuningdek, bayram munosabati bilan ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Zarafshon shahar bo'linmasi tomonidan 23-35 yoshdagи xotin-qizlar o'rtasida "YaNGI O'ZBYeKISTON – YaNGIChA DUNYoQARASh" ShIORI OSTIDA sportning "Quvnoq startlar" turidan musobaqa tashkil etildi. Birinchi faxrli o'rin 2 maktab jamoasi, Ikkinci faxrli o'rin 10 maktab, 3 faxrli o'rinni 12 va 11 maktab jamoalari egallashdi. Tadbir yakunida sport musobaqasida faol ishtirok etgan 13 ta jamoaning 78 nafar ishtirokchilari kasaba uyushmasi tomonidan faxriy yorliq va sovg'alar topshirildi.



Joriy yilning 8 dekabrida viloyat hokimligi tantanalar zalida “8 dekabr O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni” bayrami munosabati bilan Konstitutsiyamizning hayotdagi o’rni va ahamiyatini keng targ‘ib etish, fuqarolar, ayniqsa, yoshlar qalbida qonunga hurmat, Vatanga mehr va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish hamda bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik, sotsial-iktisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarga huquqiy zamin bo‘lib xizmat qilib kelayotgan bir guruh soha xodimlari viloyat hokimligining faxriy yorliqlari va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Shuningdek, bir guruh viloyat faollari “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandilar. Shuningdek, Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. Viloyat hokimi K.Tursunov ishtirokchilarni bayram bilan qutlab, viloyat hayotida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, erishilayotgan yutuqlar xususida gapirdi. Tadbir teatrlashtirilgan bayram dasturi bilan davom etdi. Mazkur tadbirlarda kasaba uyushmalari xodimlari ham faol ishtirok etdi.



Joriy yilda Tarmoq kelishuvlari, jamoa shartnomalarini ishlab chiqishda yoshlar vakillari ishtiroki ta’milanib, mazkur jarayonda kelishuv va shartnomalarga yoshlar uchun qo’shimcha imtiyoz va kafolatlar kiritilishiga erishildi. 9 ta korxona va tashkilotlarning 2020-2022 yillar uchun jamoa shartnomasiga ekspertiza xulosasi berildi. 9 tasida ham yoshlar masalasiga doir bo‘lim kiritilgan. Bundan tashkari 50 ga yakin tashkilotlarning jamoa shartnomalarida yoshlar bo‘limi buyicha qilingan ishlar va jamoa shartnomasining bajarilishi ko‘rib chikildi.

Iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’sis etilgan “Kasaba uyushmalari stipendiyasi” g‘olibi, NDPI talabasi Nurimov Alimurtazoga yanvariyun oylari uchun belgilangan mablag‘ to‘lab berildi .

Nizom talablari asosida 1 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj Oliy ta’lim muassasasining faol talabasi Shirinboyeva Dilrabo joriy yilning iyul oyida imtiyozli, bepul yo‘llanma bilan “Zomin” sanatoriysida sog‘lomlashtirildi.



Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar bo‘linmasi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarga 2020 yilda 70 nafar yoshlar ish bilan ta’milangan. Ishga olingan yoshlar uchun ish o‘rinlarida munosib mehnat sharoitlari yaratilganligi, mutaxassisligi bo‘yicha mehnat jamoasida o‘z o‘rnini topishida ko‘maklashadigan, ularni mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va kelgusida mazkur sohada yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishda o‘z hissasini ayamaydigan ustozlar biriktirilgan.

Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Uchquduk tuman bo‘linmasi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarga 2020- 2021 o‘quv yilida 24 nafar yoshlar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga olingan. Tashkilotlarda yoshlar uchun ish o‘rinlarida munosib mehnat sharoitlari yaratilgan. “Ustoz shogird“ tizimi asosida yuqori malakali ustozlarga biriktirilgan. Mutaxassisligi bo‘yicha mehnat jamoasida turli ko‘rik -tanlov, fan oyliklarida faol ishtirot etib kelmoqda. Ish haqlari o‘z vaqtida to‘lab berilmoqda. Tumandagi XTBga qarashli ta’lim muassasalarda 320 nafar 30 yoshgacha yoshlar o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 117 nafar 30 yoshgacha yoshlar bo‘lgan xodimlar faoliyat yuritib kelmoqda Yuqoridagi ta’lim muassasalarida mehnat xavfsizligi standartlariga qat’iy va aniq amal qilish ustidan nazoratni olib borish muassasalarning mehnat muhofazasi xizmati zimmasiga yuklatilgan. Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Navbaxor tuman bo‘linmasi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarga 2020 yilda 42 nafar yoshlar ish bilan ta’milangan.



Ishga olingan yoshlar uchun ish o'rinalarida munosib mehnat sharoitlari yaratilganligi, mutaxassisligi bo'yicha mehnat jamoasida o'z o'rnini topishida ko'maklashadigan, ularni mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va kelgusida mazkur sohada yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishda o'z hissasini ayamaydigan ustozlar biriktirilgan. Barcha ta'lim muassasalarida jamoa shartnomasining bo'limlari va uning mehnat muhofazasi bo'yicha bitimi loyihalariga takliflarni to'plash va ularni mehnat jamoalari majlislarida muhokama etilishini monitoring qilish boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasining majburiyatlariga kiritilgan

Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Qiziltepa tuman bo'linmasi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarga 2020 yilda 160 nafardan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlangan. Ish ga olingan yoshlar uchun ish o'rinalarida munosib mehnat sharoitlari yaratilganligi, mutaxassisligi bo'yicha mehnat jamoasida o'z o'rnini topishida ko'maklashadigan, ularni mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va kelgusida mazkur sohada yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishda o'z hissasini ayamaydigan ustozlar biriktirilgan.



Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Zarafshon shahar bo‘linmasi tasarrufidagi tashkilot va muassasalarga 2020- 2021 o‘quv yilida 94 nafar yoshlar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga olingan. Mehnat daftarchalari ochilgan. Tashkilotlarda yoshlar uchun ish o‘rinlarida munosib mehnat sharoitlari yaratilgan. “Ustoz shogird “ tizimi asosida yuqori malakali ustozlarga biriktirilgan. Mutaxassisligi bo‘yicha mehnat jamoasida turli ko‘rik -tanlov, fan oyliklarida faol ishtirok etib kelmoqda . Ish haqlari o‘z vaqtida to‘lab berilmoqda.

Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Konimex tuman bo‘linmasi tasarrufidagi tuman Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli ta’lim muassasalariga oliv o‘quv yurtini tugatgan 20 nafar yoshlar o‘qituvchi etib ishga qabul qilindi. Tumandagi 11 ta Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 40 nafar 30 yoshgacha yoshlar bo‘lgan xodimlar ishlasa, XTBga qarashli ta’lim muassasalarda 302 nafar yoshlar o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berib kelmoqda. Yuqoridagi ta’lim muassasalarida mehnat xavfsizligi standartlariga qat’iy va aniq amal qilish ustidan nazoratni olib borish muassasalarning mehnat muhofazasi xizmati zimmasiga yuklatilgan. Barcha ta’lim muassasalarida jamoa shartnomasining bo‘limlari va uning mehnat muhofazasi bo‘yicha bitimi loyihalariga takliflarni to‘plash va ularni mehnat jamoalari majlislarida muhokama etilishini monitoring qilish boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasining majburiyatlariga kiritilgan.



Kasaba uyushmalari mablag‘i hisobidan 1 mlrd so‘m mablag‘ evaziga Navbahor tumani “Kuxron” MFYda “IMAXA KASABA GRANT ART” MChJda 47 nafar yangi ish o‘rni hamda 350 mln so‘m mablag‘ evaziga “Muxtasar Madadkor” MChJda 25 nafar ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, 750 mln so‘m mablag‘ evaziga farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun “Qo‘xna

Beshrabot” XKda 35 nafar ish o‘rni yaratildi. Shundan bandligi ta’minlangan xotin-qizlar 100 nafarni tashkil etadi.



Joriy yilning iyun oyidan boshlab muntazam ravishda kasaba uyushmalari faollari bilan Zoom dasturi orkali internetdan foydalanish xamda kilinayotgan ishlar yuzasidan birlashma AKTni rivojlantirish buyicha mutaxassisi bilan birgalikda treninglar o‘tkazilib turildi.

Viloyat kasaba uyushmalarining veb sayti, facebook va telegram ijtimoiy tarmog‘idagi gruppa xamda kanallari orkali doimiy ravishda kasaba uyushmalari faoliyatiga tegishli kerakli ma’lumotlar, maslahatlar, kilingan tadbirlar yoritilib borildi.

“Besh tashabbus-besh imkoniyat” loyihasi doirasida yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish maqsadida viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Nurota tumani, “Soykechar” MFYda yoshlar uchun zamonaviy kutubxona tashkil etildi.

Joriy yilning 20 iyun kuni Yoshlar oyligi doirasida “Besh tashabbus-besh imkoniyat” loyihasi doirasida viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi tomonidan Xatirchi tumanidagi 70-, 81- va 15 o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari uchun yoshlar bop turli janrdagi badiiy kitoblar jamlanmasi sovg‘a qilindi.



Shuningdek, Xatirchi tuman tibbiyot birlashmasi huzuridagi "Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish" bo‘limi hamda viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi hamkorlikda hozirgi panedimiya sharoitida "Uyda qoling" aksiyasi doirasida yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, kasallikdan o‘zini va o‘zgalarni asrash va karantin qoidalariga rioya qilgan holda hayot kechirishni targ‘ibotini o‘z ichiga olgan bir necha tadbirlarni amalga oshirdilar. Xususan, onlayn tarzda o‘tkazilgan tanlovda g‘oliblar Birlashma kengashi tomonidan munosib taqdirlandi.

Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar bo‘linmasi tashabbusi bilan 8 mart bayrami munosobati bilan Navoiy shahar mакtabgacha ta’lim muassasalarining yosh ayol xodimlari o‘rtasida kuvnoq startlar musobaqasi o‘tkazildi. Musobaqa g‘oliblariga kasaba uyushmasi mablag‘laridan sovg‘alar taqdim etildi. Joriy yilning Yanvar-mart oylarida davomida Konimex tumani Zafarobot, To‘qqiztepa, Sho‘rko‘l MFYlarida hamda Qaraqata OFYlarida sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha 12 marotaba musobaqalar tashkil etilib 400 nafar yoshlar qamrab olindi. Mart oyida Konimex tumani 29 umuiy o‘rta ta’lim maktabida “Sog‘lom turmush tarzi taraf dorimiz” shiori ostida sportning volleyball turi bo‘yicha hamda 9-son umuiy o‘rta ta’lim maktabida sportning stol tennis va kurash turi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi. Musobaqa doirasida 230 nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi. Joriy yilning 5 dekabr kuni birlashma xodimlari o‘rtasida shaxmat va shashka hamda stol tennisi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi. G‘oliblar birlashma Kengashi tomonidan sertifikat va sovg‘alar bilan taqdirlandi. Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Uchquduq tuman bo‘linmasi tashabbusi bilan 1-oktyabr O’qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tarmoq tashkilot yoshlari o‘rtasida Konchilik kollejida sport musobaqalari tashkil etilib, tuman bo‘linmasining esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 martdagi videoselektor yig'ili shida berilgan topshiriqlariga asosan yoshlar ma'nnaviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, 5 ta muhim tashhubbuslarning ikkinchi tashabbus bo'yicha XTB bilan hamkorlikda yoshlar o'rtaida "Nafosat olami" shiori ostida Voleybol sport musobaqasi tashkil etildi va tuman birinchiligi g'oliblari bo'linmaning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Navoiy davlat pedagogika institutida faoliyat yuritayotgan yosh professor-o'qituvchilar va ishchi – xodimlar o'rtaida sportning futbol, volebol, stol tennisi, shaxmat-shashka turlari bo'yicha sport musobaqalari o'tkazildi va g'oliblar institut kasaba uyushma qo'mitasining qimmatbaho estalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi, Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Karmana tuman kengashi hamda Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar bo'linmasi bilan hamkorlikda yoshlar ishtirokida mehnat faxriylari, urush veteranlari, nafaqadagi qariyalar, yolg'iz keksalar va nogironlar holidan xabar olinib, ularga manzilli yordam ko'rsatildi.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida "Yaxshi dam – mehnatga hamdam" shiori ostida yosh xodimlarni yil davomida oilaviy dam olish uylari va sanatoriylarda dam olishini targ'ib qilish maqsadida targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Joriy yilda ko'makkka muhtoj 4 nafar yosh oila, 2 nafar kam ta'minlangan va ko'p bolali oila vakillari bepul sog'lomlashtirildi. Shuningdek, 26 nafar yosh xodimlar sanatoriyalarda sog'lomlashtirildi.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynidan 4 mingdan ortiq yoshlarning teatr va muzeylarga tashrifi uyuştirildi. 2020 yilning mart oyida "Navoiyazot" AJning 50 nafar yosh xodimlarining Toshkent shahriga hamda NDPIning faol va iqtidorli yoshlarning 50 nafarini Buxoro shahriga sayohati uyuştirildi. Shuningdek, ATB "Qishloqqurilishbank" Navoiy mintaqaviy filiali, O'zbekiston Republikasi Milliy gvardiyasi Navoiy viloyati Qo'riqlash boshqarmasi, Navoiy viloyat Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi, Navoiy shahar hokimligi, Karmana tuman hokimligi, viloyat IIXBKUQ va boshqa bir qator tashkilotlardan boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi mablag'lari hisobidan jami 190 nafar ishchi xodimlar Xorazm shahri, Samarqand viloyati hamda Zomin tumanlariga ziyorat qilish hamda hordiq chiqarish maqsadida sayoxatlar uyuştirildi. Bularning 40 nafarini yoshlar tashkil etdi.



Joriy yilning 21-23 sentyabr kunlari Toshkent viloyat Bo'stonliq tuman Chorvoq massiviga ekoturizm bo'yicha sayohatlar tashkillashtirildi. Ushbu sayoxatga tarmoq tizimidagi 16 nafar kasaba uyushma faollari ishtiroki ta'minlandi. 1-oktabr Ustozlar va murabbiylar kuni munosabati bilan shahar maktabgacha ta'lim muassasalaridan 15 nafar yosh ishchi-xodimlarni Xorazm

viloyatiga sayoxati uyushtirildi. Shuningdek, joriy yilning yanvar-fevral oylarida yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan Konimex tumani Zafarobot MFYda 3 marotaba “Yoshlar teatr studiyalari” namoyish etilib 300 ga yaqin yoshlar ishtirok etdi. 5 mart kuni Konimex tumanida To‘qqiztepa MFYda joylashgan 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabida 10, 12, 39-maktablar hamkorligida 8-mart Halqaro xotin qizlar bayrami munosabati bilan “Kuy jozibasi” deb nomlangan konsert dasturi tashkil etilib 200 ga yaqin yoshlar ishtirok etdi.



Ta’lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar kengashi tomonidan “Kasaba uyushmalari – bolalarga aksiyasi” doirasida 1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan 20 ta ehtiyojmand oilaning iqtidorli farzandlariga maktab o‘quv-qurollari jamlanmasi topshirildi. Shuningdek, Uchquduq tuman bo‘linmasi tomonidan ham aksiya doirasida tumandagi 5 nafar kam ta’minlangan, ehtiyojmand oila farzandlariga manzilli yordam ko‘rsatildi va 50 nafar tarmoqning kam ta’minlangan, ehtiyojmand ishchi-xodimlarning farzandlariga o‘quv qurollari tarqatildi. Shuningdek, Yoshlar oyligi doirasida kasaba uyushmalari ko‘magida 31 nafar ishsiz yoshlarning bandligi ta’mindan. Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi hamda tuman XTB bilan hamkorlikda 3-dekabr “Xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan uy sinfiga ta’lim olyotgan imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan 50 nafardan ortiq yoshlarni holidan xabar olindi hamda ularga manzilli moddiy va ma’naviy yordamlar ko‘rsatildi. Shuningdek, Birlashma Kengashi va Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi xodimlari Navoiy shahar bo‘linmasi bilan hamkorlikda Navoiy shahridagi 16-son maxsus maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda Ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalar va ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim

maktabi tarbiyalanuvchilari uchun kasaba uyushma mablag‘laridan sovg‘alar olib berildi. Ta’lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Qiziltepa tuman bo‘linmasi tomonidan mazkur bayram munosabati bilan uyda ta’lim oladigan o‘quvchilar holidan xabar olinib, ularga sovg‘alar topshirildi va 36-maxsus internat nogiron o‘quvchilariga kasaba uyushmalari mablag‘i xisobidan 2 mln so‘mlik o‘quv qurollari taqdim etildi.



Barcha darajadagi kasaba uyushmalari organlariga fidoyi, intiluvchan, bilimdon yoshlarni jalb etib borish maqsadida tizimda faoliyat yuritayotgan 21 nafar faol, intiluvchan, bilimdon yoshlar to‘g‘risida ma’lumotlar banki shakllantirildi.

**Yoshlar birlashmasi raisi**

**D.O’razova**